



Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid bilimlar bellashuvini o'tkazish tartibi to'g'risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tanlov O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2024-yil 26-iyundagi 15-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2024-2025-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"ning 16-bandi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabr kunidagi 426-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etiladi.

2. Ushbu "Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid bilimlar bellashuvi" (keyingi o'rinlarda – bellashuv)da Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali (bundan buyon - Filial)da tahsil olayotgan barcha talabalar ishtirok etishlari mumkin.

3. Nizom Filialda korrupsion holatlarni oldini olish, talabalarni bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish hamda tanlov yuzasidan talabalarni pul mukofotlari bilan rag'batlantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni tartibga soladi.

II. Bellashuvining maqsadi va vazifalari

4. Tanlovning maqsadi - yoshlarning korrupsiya holatlariga qarshi bilim va malakalarini oshirish hamda Filialda korrupsion holatlarni oldini olishdan iborat.

5. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

yoshlar, shu jumladan Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali (bundan buyon - Filial) talabalari o'rtasida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, ularni turli korrupsion holatlarga aralashib qolishlarining oldini olish;

yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli komil inson qilib tarbiyalash.

III. Bellashuvini o'tkazish tartibi

6. *Bellashuv(tashkilotchi)* Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy ta'lim muassasalari Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan har yili noyabr-dekabr oylar davomida tashkil etiladi.

7. Bellashuv 3 (uch) bosqichda tashkil etiladi:

birinchi saralash bosqichi, onlayn formatda tashkil etiladi;

ikkinchi hududiy bosqich, saralash bosqichida yuqori natija qayd etgan ishtirokchilar qatnashadi;

uchinchi final bosqichi, hududiy bosqich g'oliblari qatnashadi.

8. Mazkur bellashuv yakka tartibdagi musobaqa bo'lib, unda qatnashish uchun ishtirokchilar bellashuv e'lonida ko'rsatilgan Telegram bot orqali belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishlari va bot taqdim qiladigan maxsus havolani do'stlariga ulashish orqali bellashuv targ'ibotida qatnashib, kamida +5 (besh) referal ball yig'ishlari kerak bo'ladi. Mazkur shartlarni to'liq bajargan ishtirokchilar bellashuvning saralash bosqichida ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi.

9. Saralash bosqichi ishtirokchilariga 3 (uch) kun davomida korrupsiya mavzusiga oid 30 (o'ttiz) tadan test beriladi. Ishtirokchilarga testlarni kunning istalgan vaqtida ishlashiga ruxsat etiladi. Har bir test savoli uchun 1 (bir) daqiqa vaqt beriladi va ishtirokchi bu vaqt ichida biror javobni belgilamasa, savolga javob berilmadi deb hisoblanadi.

10. Har bir hudud bo'yicha test natijalari reytingiga ko'ra yuqori 10 (o'n) ta o'rinni egallagan ishtirokchilar bellashuvning hududiy bosqichida ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi.

11. Agar hududiy bosqich yo'llanmasini beradigan o'rindagi ishtirokchilarning ballari teng bo'lib qolsa, o'sha ishtirokchilarning referal ballariga qaraladi, kim tanlov targ'ibotida faolroq bo'lib, ko'proq referal ball to'plagan bo'lsa, o'sha ishtirokchi yuqoriroq o'rinda deb hisoblanadi. Agar ishtirokchilarning referral ballari ham teng bo'lib qolsa, o'sha ishtirokchilarning barchasi finalda qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

IV. Bellashuvning hududiy bosqichini o'tkazish tartibi

12. Bellashuvning hududiy bosqichida Toshkent shahridagi ishtirokchilar Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi binosiga, viloyatdagi ishtirokchilar esa o'z hududlaridagi belgilangan manzillarga pasport yoki ID karta bilan borib, hududiy bosqich testini ishlashlari kerak bo'ladi.

13. Hududiy bosqichni o'tkazilish vaqti va har bir viloyatdagi manzil lokatsiyasi ishtirokchilarga test boshlanishidan kamida 3 (uch) kun oldin ma'lum qilinadi.

14. Belgilangan manzilga belgilangan vaqtda tashrif buyurmagan (yoki kechikib borgan) ishtirokchilar hududiy bosqichdan chetlatiladi.

15. Hududiy bosqichda saralash bosqichdagi to'plangan ballar ahamiyatini yo'qotadi va ishtirokchilarning har biri teng imkoniyatga ega bo'ladi.

16. Hududiy bosqichda ishtirokchilar mas'ul kuzatuvchi nazorati ostida o'z telefonlari orqali xuddi saralash bosqichida bo'lgani kabi korrupsiya mavzusiga doir jami 50 (ellik) ta test savollarini ishlaydilar va har bir testga javob berish uchun 40 (qirq) soniyadan vaqt belgilanadi.

17. Yakunda test natijalariga ko'ra hududiy bosqich g'oliblari aniqlanadi. Test bo'yicha ishtirokchilarning ballari teng bo'lib qolgan taqdirda, testni ishlash uchun sarflangan vaqtga qaraladi. 50 (ellik) ta testni ishlash uchun kim kamroq vaqt sarflagan bo'lsa o'sha ishtirokchi yuqoriroq o'rinda deb topiladi.

V. Bellashuvning final bosqichini o'tkazish tartibi

18. Bellashuvning respublika final bosqichida hududiy bosqichda 1-o'rinni egallagan oliy ta'lim muassasalari talabalari ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi.

19. Final bosqichi Toshkent shahrida, Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi binosida tashkil etiladi.

20. Final bosqichini o'tkazish sanasi ishtirokchilarga va ular tahsil oladigan oliy ta'lim muassasasiga kamida 1 (bir) hafta oldin ma'lum qilinadi va ishtirokchining finalda ishtirok etish uchun Toshkent shahriga kelib-ketish va turar joy xarajatlari oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

21. Final bosqichida barcha ishtirokchilarning hududiy bosqichlarda to'plagan ballari o'z ahamiyatini yo'qotadi va barcha ishtirokchilar bir xil imkoniyatga ega bo'ladi.

22. Final bosqichida ishtirokchilarni baholab borish uchun kamida 3 (uch) nafar soha mutaxassislaridan iborat Hakamlar hay'ati a'zolari tasdiqlanadi.

23. Final bosqichi 2 (ikki) ta shartdan iborat bo'ladi:

1-shart: test savollari - ishtirokchilarga 50 (ellik) ta test savollari (40 (qirq) ta ochiq test, 10 (o'n) ta yopiq test) beriladi va har bir to'g'ri javob uchun +1 (bir) balldan hisoblanadi. Test savollarini ishlash uchun 30 (o'ttiz) daqiqa vaqt belgilanadi.

2-shart: insho yozish - ishtirokchilar Hakamlar hay'ati tomonidan tavsiya qilingan mavzulardan biri asosida insho yozadilar. Insho mavzusi qur'a tashlash yo'li orqali aniqlanadi.

24. Ishtirokchilarga insho yozish uchun 90 (to'qson) daqiqa vaqt belgilanadi va har bir ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan insholar Tashkiliy ishchi guruhi a'zolari tomonidan qabul qilinadi va shifrlangan holda Hakamlar hay'ati a'zolariga taqdim etiladi.

25. Ikkinchi shart umumiy 50 (ellik) ballik tizimda baholanadi, bunda inshoning imloviy xatoliklarsiz yozilganligi, ma'nosi, mavzuning to'laqonli ochib berilganligi kabi faktorlar inobatga olinadi.

26. Ikki shart bo'yicha natijalar umumlashtiriladi va yakuniy ballarga ko'ra bellashuv g'olib va sovrindorlari aniqlanadi. Final bosqichida ishtirokchilarning yakuniy ballari teng bo'lib qolgan taqdirda, yuqoriroq o'rin egasi Hakamlar hay'ati a'zolari ovoziga ko'ra aniqlanadi. Ovozlar soni teng bo'lib qolgan taqdirda, Hakamlar hay'ati raisining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

VI. Bellashuv g'oliblarini taqdirlash

27. Bellashuvning yakuniy respublika bosqichida g'olib bo'lgan (1-, 2-, 3-o'rin) ishtirokchilar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining diplom, vaucher, qimmatbaho sovg'alari hamda quyidagi miqdorda pul mablag'lari bilan rag'batlantiriladi:

1-o'rin - 6,000,000 (olti million) so'm;

2-o'rin - 5,000,000 (besh million) so'm;

3-o'rin - 4,000,000 (to'rt million) so'm.

28. Bellashuv yakuni bo'yicha o'rin olmagan talabalar faol ishtiroki uchun vazirlik tomonidan faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

29. Bellashuv natijalari ijtimoiy tarmoqlarda va rasmiy veb-saytlarda e'lon qilib boriladi.